

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI MAKTABLARIGA QABUL IMTIHONI MATERİALLARI SPETSİFİKATİYASI

MATEMATIKA
6-SINF
2025/2026-o'quv yili

I. Ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul imtihonlarini o'tkazishdan maqsad

Matematika fanidan bilim darajasini aniqlash, muammolarni hal qilishda bilimlarini qo'llay olish, xulosa chiqarish va qaror qilish ko'nkmalarini tekshirish hamda munosib o'quvchilarni tanlash.

II. Qabul imtihoni variantining tuzilishi

Imtihon savollarining har bir varianti kognitiv darajasi bilish, qo'llash, mulohaza qilish bo'lgan 30 ta bitta muqobil javobga ega bo'lgan test topshiriqlaridan iborat.

Topshiriqlar umumiy o'rta ta'limga muktablarining 4-5 sinflarining matematika fani o'quv dasturlari asosida tuziladi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari matematika fani bo'yicha quyidagi mazmun sohalarni qamrab olgan (1-jadval):
Sonlar va amallar;

Algebra va funksiyalar;

Geometriya va o'lchashlar;

Statistika va ehtimollik.

Shuningdek, imtihon savollari uchta kognitiv darajaga mos tuzilgan (2-jadval):

Bilish;

Qo'llash;

Mulohaza.

1-jadval

Mazmun sohalari bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti

Mazmun soha	Topshiriqlar soni	Topshiriqlarning foizi
Sonlar va amallar	10	33
Algebra va funksiyalar	8	27
Geometriya va o'lchashlar	9	30
Statistika va ehtimollik	3	10
Jami	30	100

2-jadval

Baholanadigan ko'nkmalar taqsimoti

Fan	Bilish	Qo'llash	Mulohaza
Sonlar va amallar	3	4	3
Algebra va funksiyalar	1	5	2
Geometriya va o'lchashlar	2	4	3
Statistika va ehtimollik		2	1
Jami	6	15	9

Faoliyat turi	O'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari darajasiga qo'yiladigan talablar
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalalar, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan.
Qo'llash	Produktiv o'quv topshiriqlari – o'quvchilardan o'r ganilgan mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, xossalalar va formulalarini qo'llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo'llab, umumlashtirish va xulosa yasashni talab qiladi.
Tahlil	Intellektual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi.

3-jadval

Topshiriqlarda baholanadigan ko'nikmalar

Nº	Mavzular		
I	Natural sonlar va amallar	13% 4 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
1	Ko'p xonali sonlar ustida 4 amalga doir hisoblash	1	Ko'p xonali sonlar ustida 4 amalga doir hisoblashda amallar tartibi algoritmini qo'llay oladi.
2	Qoldiqli bo'lishga doir matnli masalalar	1	Qoldiqli bo'lish algoritmini matnli masalalar yechishda qo'llay oladi, fikrlarni izohlay oladi.
3	Bo'linish alomatlariga doir matnli masalalar	1	Bo'linish alomatlarini farqlay oladi, matnli masalalar yechishda qo'llay oladi, fikrlarni izohlaydi va asoslay oladi.
4	Ketma-ketliklar	1	Ketma-ketliklardagi qonuniyatni topib, uning noma'lum hadini topa oladi
II	Kasrlar, o'nli kasrlar	20 % 6 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
1	To'g'ri va noto'g'ri kasrlar	1	To'g'ri va noto'g'ri kasrlarga doir nostandard masalalarni yechishda mos qoidalarni qo'llaydi, asoslaydi, xulosa chiqara oladi.
1	Kasrlarni taqqoslash	1	Oddiy kasr va aralash sonlarni to'ldiruvchisini topish orqali taqqoslash va boshqa usullari bilan taqqoslab, ularni o'sish(kamayish) tartibida joylashtira oladi.
1	Kasrlarni qo'shish va ayirishga doir hisoblash	1	Turli maxrajli aralash kasrlar ustida qo'shish va ayirish amallarining xossalalarini qo'llay oladi.
1	Aralash kasr ustida 4 amalga doir hisoblash	1	Turli maxrajli oddiy kasrlarni qo'shish va ayirish qoidalarni amaliy vaziyatlarga doir masalalarni yechishda qo'llay oladi.
1	O'nli kasrlarga oid hisoblash	1	O'nli kasrlarni yig'indisi va ayirmasini topish qoidalarni turli ko'rinishdagi topshiriqlarda o'rni qo'llay oladi.
10	O'nli kasrlarga doir masalalar	1	O'nli kasrlar ustida amallarning xossalalarini amaliy masalalar yechishda qo'llaydi, asoslaydi, xulosa chiqara oladi.
III	Geometriya va o'Ichovlar	30 % 9 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
11	To'g'ri chiziqdagi burchaklar va vertikal burchaklar	1	Qo'shni va vertikal burchaklarni ajratadi, noma'lum burchakni ularning xossalari qo'llab, topa oladi.
12	Nuqta atrofidagi burchaklar	1	Rasmida berilgan ma'lumotlardan foydalaniib, nuqta atrofidagi noma'lum burchakni topishda vaziyatni baholab, xulosa chiqara oladi.
13	Geometrik shakklardagi noma'lum burchaklarni topish	1	Chizmada berilgan to'rtburchakdagi va uchburchakdagi noma'lum burchaklarini topishda qoidalarni qo'llaydi, asoslaydi va xulosa chiqaradi.

14	Koordinata burchagi	1	Koordinatalari bilan berilgan nuqtalarni koordinata burchagida tasvirlab, ularni tutashtirib hosil bo'lgan ko'pburchaklarning elementlarini topa oladi.
15	O'Ichov birliklari	1	O'Ichov birliklariga doir amaliy masalalarni yechishda berilgan o'Ichov birligini boshqa o'Ichov birligiga aylantiradi va aksincha.
16	Murakkab shakllarning perimetri	1	Murakkab shakl perimetрini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yechishda sodda shakl perimetрini topish qoidalarini qo'llay oladi.
17	Murakkab shakllarning yuzi	1	Shaklning yuzini topishga doir nostandard masalalarni yechishda sodda shakl yuzini topish qoidalarini qo'llaydi, asoslaydi va xulosa chiqaradi.
18	Hajmga doir matnli masala	1	Kub va kuboidning hajmini topishga doir bir necha bosqichli masalalarni yechishda mos formulalarini qo'llay oladi.
19	Ko'pyoqlilarning yoyilmasi	1	Hajimga doir murakkab va nostandard masalalarni yechishda tahlil qiladi, mos qoidalarni qo'llaydi va xulosa chiqaradi.
IV	Nisbat va proporsiya	17 % 5 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
20	Nisbatlar	1	Amaliy vaziyatlarga doir masalalarni yechishda berilgan shartga ko'ra nisbatni topish qonuniyatini qo'llaydi va xulosa chiqaradi.
21	Sonning va miqdorning qismi va foizini topish	1	Sonning va miqdorning qismi, qolgan qismi va foizini topishga doir bir necha bosqichli matnli masalalarni yecha oladi.
22	Foizga doir masalalar	1	Foiz va QQS qatnashgan amaliy vaziyatlarga doir masalalarni izohlab yecha oladi.
23	Ikki miqdorning nisbati	1	Ikki miqdorning nisbatiga oid masalalarni yechishda mos qoidalarni qo'llay oladi.
24	Uch miqdorning nisbati	1	Uch miqdorning nisbatiga oid nostandard masalalarni yechishda vaziyatni baholaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.
V	Ma'lumotlar tahlili	10 % 3 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
25	Ma'lumotlar bilan ishlashga oid masala.	1	Masalalar yechishda ma'lumotlarni diagramma, grafik, chizma va kontekstdan foydalaniib, izohlay oladi.
26	O'rtacha qiymat	1	O'rtacha qiymatga oid masalalarni yechishda mos qoidalarni qo'llaydi va xulosa chiqaradi.
27	Venn diagrammasiga doir masalalar	1	Venn diagrammasidan foydalaniib, to'plamlarning ayirmasi, yig'indisi va simmetrik yig'indisini topa oladi
VI	Tenglamalar	10 % 3 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
28	Chiziqli tenglamalar	1	Koeffitsiyenti birdan farqli bo'lgan bir necha amalli chiziqli tenglamalarning ildizini topa oladi.
29	Tenglamalar tuzib yechiladigan masalalar	1	Amaliy masalalarni yechishda masalaning matematik modelini yaratadi, tenglamalar tuzib, noma'lum parametrлarni aniqlay oladi.
30	Ikkita jism harakatiga doir matnli masalalar	1	Nuqtalarning birgalikdagi bir tomonlama va qarama – qarshi tomonlama, quvish va kechikish harakatiga doir nostandard masalalarni yechishda vaziyatni baholaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.
Jami :		100 % 30 ta topshiriq	

Javoblar varaqasini to'ldirish shartlari:

Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

Spetsifikatsiyada ko'rsatilgan mavzular quyidagi adabiyotlardan olingan:

1. Matematika 4 sinf darslik. I, II, III va IV qism. I.V.Repyova. Toshkent 2020.
2. Matematika 5 sinf darslik. I va II qism. B.Xaydarov. Toshkent 2020.
3. AHA! MATEMATIKA 5 sinf darslik va mashq daftari/ Erik Chan Chun Ming. Toshkent 2024.